



BOJXONANING RIVOJLANISH TARIXI VA USLUBIYATI

Alixonov Noibxon Anvarjon o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo'nalishi K-102-21-guruh talabasi

Yuldashev Abbosbek Rustamjon o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo'nalishi K-102-21-guruh talabasi

Atanazarov Dadanazar Xudaynazar o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo'nalishi K-102-21-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada *bojxona ishi asoslarini, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi, bugungi kundagi tarkibiy tuzilmasi, bojxona ishini amalga oshirishning iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy mexanizmlari, uning asosiy vazifasi bugungi kunda bojxona siyosatining ustuvor yo'nalishlari, bojxona siyosatini amalga oshirish vositasi hisoblangan bojxona ishining xususiyatlari, bojxona ishini tashkil etuvchi asosiy elementlarning vazifalari, ahamiyati va qo'llanilishi tartibi to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *bojxona, portorium, ta'rif, pattakesar, Ashshur boji*

Tarixiy manbalarga ko'ra, bojxona ishining dastlabki elementlari eramizdan oldingi 2-3 ming yilliklardan boshlab shakllana boshlagan. Albatta buning asosiy sabablaridan biri, qadimgi shaharlar va davlatlar o'rtasida savdo aloqalarining shakllanishidir. Insoniyatning turg'un xayotga o'tishi, qadimiy sivilizatsiyaga ega bo'lgan yerlarda davlatchilikning paydo bo'lishi va ishlab chiqarishning rivojlanishi, ortiqcha tovarlarni sotish yoki almashtirish ehtiyojlarining yuzaga kelishi savdo aloqalarining rivojlanishiga olib keldi. Savdo aloqalarining shakllanishi haqidagi eng ilk ma'lumotlar Qadimgi Misrning oltinchi sulolasi (bizning eramizgacha bo'lgan 3-



ming yillik boshi) yodgorliklari orqali yetib kelgan. Bu davrda misrliklar Finikiya shaharlari va Qizil dengiz havzasidagi yerlar aholisi bilan savdo qilganlar [1-3].

Ammo tovarlar orilgan savdo karvonlari o'tadigan kimsasiz yo'llarda qaroqchilar guruhlar paydo bo'lib, karvonlarni shafqatsiz talay boshlaganlar. Aksariyat hollarda karvonni kuzatib borayotgan savdogarlar o'ldirib yuborilgan. Savdogarlarda paydo bo'la boshlagan qo'rquv va savdo karvonlarining kamayishi savdo aloqalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsata boshladi. Misrdagi Yangi podshohlik davri (eramizgacha XVI-XVII asrlar)ning tarixiy yodgorliklari karvonlarni talanishi va savdogarlarning shikoyatlari haqida hikoya qiladi. Shu sababli savdo karvonlarini himoya qilish va savdo aloqalarini tiklash maqsadida shahar hukmdorlari tomonidan karvonlarga maxsus qurollangan qo'riqchilar ajratilgan. Ammo qo'riqchilarni qurollantirish, maosh to'lash va boshqa zarur xarajatlarni qoplash shahar xazinasiga juda qimmatga tushar edi. Shu sababli, ushbu sarfxarajatlarni qoplash uchun savdogarlardan maxsus yig'imglar undirila boshlandi. Bundan tashqari yirik yer egalari (feodallar) tomonidan ularning yerlari orqali o'tuvchi karvonlardan soliqlar undirila boshlangan. Bu kabi soliqlar bojning kadimgi ko'rinishlaridan biri edi. Keyinchalik ularni shaharlar xokimlari ham undirib ola boshladi, davlatlar paydo bo'lgandan keyin esa boj undirish xazinani to'ldirishning qulay vositasiga aylandi. Misol uchun, eramizdan avvalgi II ming yillik boshlarida deyarli butun qadimgi dunyoning markaziga aylangan Vavilonda barcha tovarlar shaharga olib kirilishida ko'zdan kechirilar va ulardan boj undirilar edi [4].

Ijtimoiy hayotning murakkablashishi, davlat chegaralarini kengaytirish va yangi yerlarni zabt etish siyosatining paydo bo'lishi davlatlar o'rtasidagi urushlarni avj oldirib yubordi. Bu kabi son-sanoqsiz va uzoq muddatli urushlar o'z navbatida shaharlar va davlatlarning xazinalarini taqchil holatga keltira boshladi. Bunday holat esa xazinaga tushadigan yig'imglarning, shu jumladan savdodan olinadigan bojlarning yangidan-yangi turlarini joriy etishni taqozo etdi. Eramizdan avvalgi 3-2 ming yillarda Assiriya podshohi Ashshur farmon chiqarib, savdoga olib kelingan barcha tovarlar uchun boj joriy etgan va **“Ashshur boji”** nomi bilan tarixga kirgan.



Eramizdan oldingi VI asrda Rimda Podsho Ank Marsiy Ostivda port qurdiradi va shu port orqali chetdan olib kiriladigan barcha tovarlar uchun boj tayinladi. Keyinroq, ushbu boj **portorium** deb atalgan [3-5].

Eramizdan avvalgi III asrda Gibraltar bo'g'ozidan kemalarning o'tishi uchun boj olingan. Dengiz portlariga kirib kelayotgan yuklardan boj undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, Tarif shahrida (hozirgi Ispaniya davlati hududida) ilk bor tovarning nomi va undan undiriladigan boj miqdorining ro'yxati (hozirgi kundagi bojxona bojlari stavkalari kabi) ishlab chiqilgan va u shu shahar nomi bilan «**tarif**» deb atalgan [6-9].

Boj o'zining asosiy fiskal funksiyasini, ya'ni xazina manfaatlariga xizmat qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliqlar va yig'imlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga ham ko'maklashdi. Davlatlar rivojlanishi barobarida bojlar ham rivojlandi, bojxona ishining ayrim shakllari takomillashdi.

Qadimgi Rimda bojni o'ziga to'q, obro'li odamlar va "publikanlar" deb ataluvchi suvoriylar tabaqasidan tuzilgan guruxlar yig'ar edi. Yig'ilgan bojlar publikanlar tomonidan davlat xazinasiga topshirilar edi [10-13].

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bojxona ishining dastlabki ko'rinishlari eramizdan oldingi 3-2 ming yilliklardan boshlab qadimgi Gresiya, Rim, Misr va Karfagen davlatlari hududlarida shakllana boshlagan va sivilizatsiyaning rivojlanishi bilan asrlar davomida takomillashib, davlat siyosati darajasigacha yetgan.

ADABIYOTLAR

1. Nasirov I.Z. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.
2. Nasirov I.Z. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.
3. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.



4. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
5. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO‘L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
6. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O‘LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
7. Насиров, И. З. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(4), 118-121.
8. Насиров, И. З. (2023). КАФЕДРАДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOG*, 6(2), 299-302.
9. Nasirov , I. (2023). CONDUCTING LESSONS IN THE “MENTAL ATTACK” METHOD. *International Conference On Higer Education Teaching*, 1(1), 86-89. Retieved from <https://aidlix.comphp/aeticle/view/90>
10. Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. *Конференц-зона* , 327–332. Получено с <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>
11. Насиров Илхам Закирович. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 118–121. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3069>



12. Zakirovich, N. I. ., & Mahammadovna , S. I. . (2023). LEVELS OF DEVELOPMENT OF HUMAN ABILITIES. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7)*, 341–344. извлечено от

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5245>

13. Закирович, Н. И. ., Жалолиддин ўғли, А. С. ., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7)*, 345–351.

извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>